

---

## "YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARI, BIRLASHAYLIK!"

"Yoshlar kuni" munosabati bilan "Yangi O'zbekiston yoshlari birlashaylik!" shiori ostida Toshloq tumanidagi Do'stlik, Suvboshi, So'kchilik va Shodlik MFYlar yoshlar yetakchilari tashabbusi bilan "Zakovat" intellektual o'yini hamda sportning voleybol, stol tennisi turlari bo'yicha musobaqalar, kitobxonlik marafonlari mahalla yoshlari ishtirokida yuqori saviyada o'tkazildi. Musobaqa va tanlovlarda g'olib bo'lgan faol yoshlar diplom va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi. Shundan so'ng, "Yoshlar oqshomi" konsert dasturi ko'tarinki ruhda bo'lib o'tdi. Tadbirda kuylangan qo'shiqlar ishtirokchi yoshlarning kayfiyatiga-kayfiyat ulashdi.

2024-06-13 16:11:45